

“YASHIL” IQTISODIYOTNI BAHOLASHDA INSON KAPITALI ROLI**O'roqova Dilfuza Bahriddinovna**

Buxoro davlat universiteti

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası dotsenti, PhD

E-mail: d.b.o'roqova@buxdu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi, uning ijtimoiy barqarorlik bilan o‘zaro aloqadorligi hamda inson kapitalining ushbu jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, “yashil” iqtisodiyotni baholashda inson kapitaliga oid ko‘rsatkichlarni kompozit indekslarga kiritish imkoniyatlari ko‘rib chiqilib, reyting usuli orqali mintaqaviy darajadagi monitoring va hisobot mexanizmlari xususida tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, ijtimoiy barqarorlik, inson kapitali, ekotexnologiyalar, kompozit indeks, reyting tahlillari, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ijtimoiy adolat.

Аннотация

В данной статье анализируется концепция «зеленой» экономики, её взаимосвязь с социальной устойчивостью, а также роль человеческого капитала в этом процессе. Кроме того, рассматриваются возможности включения показателей, относящихся к человеческому капиталу, в состав композитных индексов при оценке «зеленой» экономики. На основе рейтингового метода предлагаются рекомендации по механизмам мониторинга и отчетности на региональном уровне.

Ключевые слова: зеленая экономика, социальная устойчивость, человеческий капитал, экотехнологии, композитный индекс, рейтинговый анализ, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, социальная справедливость.

Abstract

This article analyzes the concept of the "green" economy, its interrelation with social sustainability, and the role of human capital in this process. Furthermore, it explores the possibilities of incorporating human capital-related indicators into composite indices when assessing the "green" economy. Recommendations are provided on monitoring and reporting mechanisms at the regional level using the ranking method.

Keywords: green economy, social sustainability, human capital, eco-technologies, composite index, ranking analysis, sustainable development, renewable energy, social justice.

KIRISH

“Yashil” iqtisodiyot – iqtisodiy o‘rish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni uyg‘unlashtiradigan yondashuv bo‘lib, ijtimoiy farovonlikni yaxshilashni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuvda asosiy maqsad iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini saqlagan holda, tabiiy resurslarning kelajak avlodlar uchun barqarorligiga erishish va ijtimoiy adolat prinsiplari (teng imkoniyatlar, aholi salomatligi, adolatli taqsimot)ni ta‘minlashdan iborat. Bunday iqtisodiyotda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, “yashil” texnologiyalar va ekologik ta‘sirni kamaytirishga qaratilgan yechimlar ilgari suriladi.

Inson kapitali – ta‘lim, malaka, salomatlik va mehnat faoliyatini o‘z ichiga olgan fundamental ko‘rsatkich bo‘lib, ijtimoiy barqarorlikda markaziy o‘rin tutadi. Yuqori darajadagi inson kapitali jamiyatda ilm-fan va innovatsiyalarni tezroq o‘zlashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ijtimoiy birdamlik hamda ekologik mas‘uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Aynan shuning uchun “yashil” iqtisodiyot sharoitida inson kapitali rivojlanishi barqarorlikning asosi sifatida ko‘rib chiqiladi. So‘nggi (2021/2022-yillar) e‘lon qilingan ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining IRI 0,727 ni tashkil etib, 191 ta davlat orasida 101-o‘rinni egallagan. BMT tasnifiga binoan, bu ko‘rsatkich “Yuqori inson rivojlanish darajasi” toifasiga mos keladi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda inson kapitalini baholash konsepsiyalari, mintaqaviy kesimda kuzatuv va monitoring qilish tizimlari hamda kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlar yoritiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil” iqtisodiyot samaradorligi ilgari asosan ekologik (chiqindilar, bioxilma-xillik, suv va havo sifati) va iqtisodiy (resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, “yashil” texnologiyalar hajmi) ko‘rsatkichlar orqali o‘lchanar edi. Biroq zamonaviy talablar ijtimoiy barqarorlikni ham ushbu tizimga kiritishni taqozo etmoqda. Shuning uchun BMT, OECD, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar inson kapitali bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni (aholi salomatligi, ta‘lim sifati, bandlik, iqtisodiy tenglik) “yashil” iqtisod indikatorlar to‘plamiga qo‘shish bo‘yicha izlanishlar olib bormoqda. Masalan:

- **Green Economy Progress (GEP) Index** (UNEP): Ushbu indeks nafaqat ekologik va iqtisodiy omillar, balki aholi salomatligi, ta‘lim darajasi, iqtisodiy tenglik kabi ijtimoiy indikatorlarni ham o‘z ichiga oladi.

- **Green Growth Indicators** (OECD): “Yashil” o‘rishni baholash metodologiyasida inson farovonligi va ijtimoiy ko‘rsatkichlar, jumladan bandlik, sog‘liq va ta‘lim muhim o‘rin tutadi.

Inson kapitalining rivojlanish darajasi va mintaqaning “yashil” iqtisodiyotini baholash bo‘yicha xorijiy hamda o‘zbek olimlar bergan turli ta‘rif va yondashuvlari 1-jadval shaklida keltirilgan. Jadvalda har bir olim (yoki tadqiqotchi) tomonidan inson kapitali tushunchasiga berilgan ta‘rif, uning “yashil” (barqaror) iqtisodiyotga bog‘liq jihatlari, shuningdek manbalar ko‘rsatilgan.

1-jadval

Inson kapitalining rivojlanish darajasi va mintaqaning “yashil” iqtisodiyotini baholash¹

Olimlar	Davlat	Inson kapitali ta’rif(i)	“Yashil” iqtisodiyot bilan bog’liqlik	Asosiy manba yoki ish
Theodore W. Schultz	AQSH	Inson kapitalini – “insonlarning bilim va ko’nikmalariga, salomatligi hamda malakasiga yo’naltirilgan investitsiyalarning samarasini ifodalovchi” muhim iqtisodiy omil sifatida ko’radi	Yashil iqtisodiyotda yangi texnologiyalarni tezroq o’zlashtirish, ekologik mas’uliyatni shakllantirish, barqaror qishloq xo’jaligini joriy etish uchun bilim va ko’nikmalar zarur	Schultz, T. W. (1961). <i>Investment in Human Capital</i> . The American Economic Review.
Gary S. Becker	AQSH	Inson kapitali – “ta’lim, sog’liqni saqlash, kasb-hunar o’rgatish hamda boshqa insonga yo’naltirilgan investitsiyalar majmui orqali yaratiladigan potensial”	Inson kapitali darajasi yuqori bo’lgan jamiyatlar “yashil” texnologiyalarni tezroq joriy etishi, qayta tiklanuvchi energiya va resurs tejovchi usullarni amaliyotga tatbiq etishi osonlashadi	Becker, G. S. (1964). <i>Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education</i> .
Herman E. Daly	AQSH	Inson kapitalini – “tabiiy kapital bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanishni cheklovchi yoki kuchaytiruvchi resurs sifatida” ko’radi	Barqaror (“yashil”) rivojlanishda tabiiy resurslar va inson kapitali o’zaro muvozanatga ega bo’lishi shart; ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilishda inson salohiyati muhim	Daly, H. E. (1996). <i>Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development</i> .
Paul Ekins	Buyuk Britaniya	Inson kapitali – “ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy kapital bilan birga barqaror rivojlanishning asosiy to’rt unsuridan biri”, deb e’tirof etadi	Ijtimoiy barqarorlik va ekologik mas’uliyatni birlashtirishda inson kapitali muhim o’rin tutadi; “yashil” iqtisodga o’tish uchun ta’lim, innovatsiya va ijtimoiy uyg’unlik zarur	Ekins, P. (2000). <i>Economic Growth and Environmental Sustainability: the Prospects for Green Growth</i> .
Joseph E. Stiglitz	AQSH	Inson kapitalini – “iqtisodiy o’sish va farovonlikka bevosita ta’sir ko’rsatadigan, shu bilan birga notekis taqsimlanganda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin bo’lgan omil”	“Yashil” iqtisodda barqarorlik ham iqtisodiy, ham ijtimoiy tenglikni talab qiladi; inson kapitali bundagi innovatsiyalar va teng imkoniyatlar yaratishda hal qiluvchi rol o’ynaydi	Stiglitz, J. E. (1999). <i>Knowledge as a Global Public Good</i> . Global Public Goods.
G’ulomov S. X. et al.	O’zbekiston	Inson kapitalini – “shaxsning bilim, salomatlik, kasbiy mahorat, ma’naviy-axloqiy sifatlari jamlanmasi hamda ularni rivojlantirishga kiritilgan investitsiyalarning natijasi” deb biladi	“Yashil” iqtisodiyotga o’tishda, ayniqsa, demografik va ijtimoiy holatni yaxshilash uchun ta’lim, sog’liqni saqlash va ekologik onglikni kuchaytirish zarur; bu – ijtimoiy barqarorlik poydevori	S. X. G’ulomov, G’. X. Xodjimurodov, N. X. Abduraimov va boshqalar (2019). <i>Inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyalari</i> .

¹ Muallif ishlanmasi

Olimlar	Davlat	Inson kapitali ta'rif(i)	"Yashil" iqtisodiyot bilan bog'liqlik	Asosiy manba yoki ish
R. Nazarov va hammuall.	O'zbekiston	Inson kapitali – "uzluksiz rivojlanadigan jamiyatda har bir fuqaroning sog'lom hayot kechirishi, zamonaviy bilim va kompetensiyaga ega bo'lishini ta'minlovchi jarayonlar yig'indisi"	Mintaqaviy "yashil" iqtisodiyot loyihalarida yetarli kadrlar tayyorlash, mahalliy aholi savodxonligini oshirish va ekologik mas'uliyatni shakllantirishni bosh omil sifatida ko'rsatadi	Nazarov R. va boshqalar (2021). <i>Barqaror iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish masalalari</i> . T.

Inson kapitali masalasi xalqaro va milliy miqyosda iqtisodiy o'sish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Xorijiy olimlar (T. Schultz, G. Becker, H. Daly, P. Ekins, J. Stiglitz) ushbu tushunchani turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq qilishgan bo'lsa-da, ular inson kapitalining yuqori darajasi barqaror iqtisodiy o'sish va yashil texnologiyalarni keng joriy etish uchun hal qiluvchi omil ekaniga yakdil fikr bildiradilar. Ularning ilmiy ishlari inson kapitalining rivojlanishi iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Milliy tadqiqotlar ham ushbu masalani chuqur yoritadi. O'zbek tadqiqotchilari (A. G'ulomov, R. Nazarov va boshqalar) inson kapitali rivojlanishini milliy sharoitlar, ijtimoiy-demografik xususiyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilib, "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonining ijtimoiy barqarorlik va ekologik tafakkur bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, inson kapitalini rivojlantirish ekologik ongni shakllantirish va yashil innovatsiyalarni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2-jadval

Inson kapitalini baholashdagi asosiy yondashuvlar va ularning xususiyatlari¹

Ko'rsatkich	BMT Taraqqiyot dasturining (UNDP) Inson rivojlanish indeksi (HDI yoki IRI)	Jahon bankining Inson kapitali indeksi (HKI)	Mahalliy idoralar tomonidan ishlab chiqiladigan reytinglar va indekslar
Mazmun va maqsad	Davlatlar miqyosida inson rivojlanishini baholash (sog'liq, ta'lim, daromad) va global reytinglarni shakllantirish.	Davlatlarda inson kapitaliga sarmoya va uning samaradorligini aniqlash: bola sog'lig'i, ta'lim sifati, umr davomiyligi va ish berish (bandlik) ko'rsatkichlari bo'yicha baholash.	O'zbekistonda sektorlar (ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy rivojlanish va boshqalar) kesimida inson kapitaliga oid turli ko'rsatkichlar to'plash va tahlil qilish.
Asosiy mezonlar	1. Umr davomiy-ligi (sog'liqni saqlash) 2. Ta'lim darajasi 3. Yalpi milliy daromad (YMD) yoki kishi boshiga to'g'ri keladigan daromad	1. Bola sog'lig'i va to'yib ovqatlanish darajasi 2. Umr davomiy-ligi 3. Ta'lim sifati va davomiy-ligi 4. Ish berish (bandlik) ko'rsatkichlari	Ta'lim sifati (Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar) - Tibbiyot infrastrukturasi rivojlanishi, aholi salomatligi - Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (YaHM/YIM, bandlik, demografik vaziyat va h.k.)

¹ Muallif ishlanmasi

Ko'rsatkich	BMT Taraqqiyot dasturining (UNDP) Inson rivojlanish indeksi (HDI yoki IRI)	Jahon bankining Inson kapitali indeksi (HKI)	Mahalliy idoralar tomonidan ishlab chiqiladigan reytinglar va indekslar
Davlatlar kesimida	Har yili BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan e'lon qilinadi. 2022-yilda e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston IRI = 0,727 (dunyoda 101-o'rin).	Jahon banki har bir davlat bo'yi-cha "Human Capital Index"ni shakllantiradi. 2020-yilda O'zbekiston 174 ta davlat orasida 102-o'rinni egallagan.	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi hamda sohaviy vazirliklar tomonidan alohida reytinglar yoki ko'rsatkichlar e'lon qilinadi.
Mintaqalar kesimida	Ayrim yirik davlatlarda (Ros-siya, Braziliya, Xitoy va b.) HDIning subnatsional shakllari muntazam ravishda e'lon qilinadi. O'zbekistonda pilot tadqiqotlar bo'lib o'tgan, ammo rasmiy "viloyatlar bo'yicha HDI" hanuz mavjud emas.	Hozircha O'zbekiston viloyatlari kesimida rasmiy hisob-kitoblar yoki hisobotlar mavjud emas. Jahon banki inson kapitalini mahalliy darajada tahlil qilishga qaratilgan turli loyihalarni qo'llab-quvvatlab keladi.	Mahalliy darajadagi ko'rsatkichlar: - Ta'lim sifati reytinglari (Xalq ta'limi, Maktabgacha ta'lim, Oliy ta'lim vazirliklari) - Tibbiy xizmat sifati va salomatlik ko'rsatkichlari (Sog'liqni saqlash vazirligi) - Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti (Statqo'm va boshqalar)

Rasmiy hujjatlar, xususan O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasida inson kapitali barqaror rivojlanishning asosiy ustunlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu konsepsiya inson kapitalining rivojlanishi orqali yashil loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni maqsad qilgan davlat siyosatini ifodalaydi.

METODOLOGIYA

Inson kapitalining rivojlanish darajasini baholashda xalqaro amaliyotda inson taraqqiyoti indeksi (HDI) va inson kapitali indeksi (HKI) kabi ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi. Biroq, hozirgi kunda ushbu yondashuvlar asosan davlat miqyosida tatbiq etilib, mintaqaviy (viloyat) darajadagi to'liq ko'rsatkichlar e'lon qilinmaydi. Shu sababli, mintaqalar o'rtasidagi inson kapitalining dinamikasini kompleks baholash imkoniyati cheklangan.

Mahalliy idoralar tomonidan ishlab chiqilayotgan reyting va indekslar inson kapitalining turli jabhalarini (masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash yoki mehnat bozori) yoritib bersa-da, ular yagona konsolidatsiyalashgan indeks shaklida birlashtirilmagan. Ushbu holat inson kapitali rivojlanishini kompleks tahlil qilish va mintaqalararo taqqoslashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Kelgusida turli ko'rsatkichlarni birlashtirish va ularni muntazam ravishda rasmiy e'lon qilish inson kapitali bo'yicha chuqur tahlillar o'tkazish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur sharoit yaratadi. Bu nafaqat milliy darajada, balki hududiy strategiyalarni shakllantirishda ham iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu yondashuvda har bir soha bo'yicha bir qator asosiy ko'rsatkichlar aniqlanadi, so'ngra ular matematika-statistik metodlar yordamida normalizatsiya (standartlashtirish) qilinib, bloklar kesimida umumiy ball yoki indeks shaklida jamlanadi. Natijada hosil bo'lgan yakuniy **kompozit indeks** hududlarning nisbiy

holatini, ya'ni qaysi viloyat yoki tuman qaysi mezonlarda ilg'or yoki sust ekanligini aniqroq ko'rsatib beradi. **“Kompozit indeks” usuli** – turli jabhalarga oid ko'rsatkichlarni (sog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisodiy farovonlik va boshqalar) yagona raqamga aylantirish orqali mintaqa (viloyat yoki tuman) rivojlanishini baholash uslubidir..

Kompozit ijtimoiy-ekologik indikatorlar ishlab chiqish.

Ko'plab davlatlarda, xususan O'zbekistonda, har bir mintaqada “yashil” iqtisodiyot rivoji darajasini kompleks baholash uchun kompozit indekslar metodologiyasi qo'llaniladi. Bunda indikatorlar uchta asosiy blokka bo'linadi:

1. Ekologik blok: havo va suv sifati, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash, biogaz va quyosh panellari ulushi, energiya tejamkorligi.
2. Iqtisodiy blok: yalpi hududiy mahsulot, bandlik, innovatsiyalar, “yashil” texnologiyalarning joriy etilish darajasi, investitsiya muhiti.
3. Ijtimoiy blok: inson kapitali (ta'lim, sog'liqni saqlash, demografik ko'rsatkichlar, ijtimoiy tenglik, kambag'allik darajasi).

$$\text{Min-max: } (x - \min(x)) / (\max(x) - \min)$$

Standartlashtirish (Z-ball) va h.k.

“Yashil” iqtisodiyot ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki undan ko'zlangan maqsad nafaqat iqtisodiy rentabellik va ekologik xavfsizlik, balki inson kapitalining yuksalishi hamdir. Inson kapitali jamiyatda bilim, salomatlik, malaka va innovatsion salohiyatni oshirish orqali “yashil” texnologiyalarga o'tish jarayonini tezlashtiradi. Shu bois, ekologik va iqtisodiy indikatorlar bilan bir qatorda, ijtimoiy ko'rsatkichlarni (ta'lim sifati, sog'liqni saqlash, demografik vaziyat, ijtimoiy tenglik) ham baholash metodologiyalari ishlab chiqish aktual ahamiyat kasb etadi.

Kompozit ijtimoiy-ekologik indekslardan foydalanish orqali hududlar o'rtasidagi farqlarni aniqroq ko'rish, o'z vaqtida chora-tadbirlar qabul qilish hamda barqaror rivojlanishdagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash imkoniyati yaratiladi. Kelgusida muntazam monitoring va davriy hisobotlar e'lon qilish, shu orqali siyosiy qarorlar hamda investitsiya dasturlari sifatini yaxshilash ijtimoiy barqarorlik va “yashil” iqtisodiyot rivojiga yanada katta hissa qo'shishi mumkin.

TAXLIL VA NATIJALAR

“Yashil” iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlikni rivojlantirish konsepsiyasiga asoslangan holda, O'zbekiston hududlari kesimida (shartli, taxminiy) inson kapitali rivojlanish darajasi bo'yicha 2022-yilgi ko'rsatkichlar va 2026-yil prognozi keltirilgan. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar real statistika emas, balki metodik yondashuvni tushuntirish uchun misol tariqasida tuzilgan. Har bir hudud bo'yicha quyidagi indikatorlar inobatga olingan:

1. Umr davomiyligi (UD) – aholi sog'liqni saqlash darajasi.
2. Ta'lim qamrovi (TQ) – maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim, savodxonlik va kasbiy malaka.

3. Iqtisodiy faollik (IF) – bandlik, daromadlar, iqtisodiy imkoniyatlar va tadbirkorlik rivojlanganlik darajasi.

4. Yashil texnologiyalar bo'yicha investitsiya (YTI) – qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalariga sarmoya.

5. Ijtimoiy barqarorlik indeksi (IBI) – ijtimoiy tenglik, gender tengligi, ijtimoiy himoya, xavfsizlik va fuqarolar farovonligi.

6. Inson kapitali darajasi (IKD) – yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida kompleks (0–1 oraliqda) baho, bunda 1 – eng yuqori rivojlanish darajasi.

3-jadval

Yashil iqtisod va ijtimoiy barqarorlik bo'yicha hududlar kesimidagi 2022-yil ko'rsatkichlari va 2026-yil prognozi (shartli ma'lumotlar)

Hudud	UD (2022)	UD (2026)	TQ (2022)	TQ (2026)	IF (2022)	IF (2026)	YTI (2022)	YTI (2026)	IBI (2022)	IBI (2026)	IKD (2022)	IKD (2026)
Toshkent sh.	75.2 yil	76.1 yil	0.88	0.92	0.85	0.90	0.48	0.60	0.80	0.84	0.82	0.88
Samarqand	73.4 yil	74.3 yil	0.80	0.85	0.78	0.83	0.35	0.47	0.72	0.78	0.73	0.80
Farg'ona	73.1 yil	74.0 yil	0.82	0.86	0.77	0.82	0.33	0.45	0.70	0.76	0.71	0.79
Surxondaryo	71.9 yil	73.0 yil	0.75	0.81	0.72	0.78	0.30	0.42	0.65	0.72	0.66	0.75
Navoiy	72.6 yil	73.5 yil	0.78	0.83	0.76	0.80	0.39	0.52	0.68	0.75	0.69	0.78
Qoraqalpog'i ston	71.5 yil	72.7 yil	0.73	0.79	0.70	0.76	0.28	0.40	71.5 yil	72.7 yil	0.73	0.79

Inson kapitali darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili ularning kelgusi yillarda bosqichma-bosqich ijobiy o'sishini ko'rsatadi. Ushbu jarayon asosan davlat siyosati, ijtimoiy va iqtisodiy chora-tadbirlar bilan bog'liq bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda shakllanadi:

1. Umr davomiyligi (UD)

2022-yilda umr davomiyligi 71,5–75,2 yil oralig'ida qayd etilgan bo'lib, 2026-yilga qadar ushbu ko'rsatkichning 1–1,2 yilga oshishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o'sishga tibbiy xizmat sifatining yaxshilanishi, sog'lom turmush tarzining faol targ'ib etilishi hamda tibbiy sug'urtalash darajasining ortishi asosiy omil sifatida ko'riladi.

2. Ta'lim qamrovi (TQ)

2022-yilda hududlarga qarab 0,73–0,88 oralig'ida bo'lgan ko'rsatkich 2026-yilgacha 0,79–0,92 oralig'ida oshishi kutilmoqda. Maktabgacha ta'limni kengaytirish, oliy ta'limga qabul kvotalarini oshirish, shuningdek, kasb-hunar ta'limi tizimini rivojlantirish ko'rsatkichning ijobiy dinamikasini ta'minlovchi muhim omillardir.

3. Iqtisodiy faollik (IF)

2022-yilda iqtisodiy faollik indeksi 0,70–0,85 diapazonida bo'lgan bo'lsa, 2026-yilda bu ko'rsatkichning 0,76–0,90 oralig'ida oshishi kutilmoqda. Qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida "yashil" texnologiyalarni joriy etish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda investitsiyalarni jalb qilish mehnat bozorining faollashuviga xizmat qiladi.

4. Yashil texnologiyalar bo'yicha investitsiyalar (YTI)

2022-yilda bu ko'rsatkich aksariyat viloyatlarda nisbatan past (0,28–0,48) bo'lgan bo'lsa, 2026-yilga qadar 0,40–0,60 oralig'ida o'sishi prognoz qilinmoqda.

Ushbu o'sish qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish jarayonlari bilan bog'liq.

5. Ijtimoiy barqarorlik indeksi (IBI)

2022-yilda ushbu ko'rsatkich 0,63–0,80 oralig'ida bo'lgan bo'lsa, 2026-yilga qadar 0,70–0,84 darajasida o'sishi kutilmoqda. Ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, gender tengligini qo'llab-quvvatlash va xavfsizlik chora-tadbirlari mazkur ko'rsatkichning ijobiy dinamikasiga asos bo'ladi.

6. Inson kapitali darajasi (IKD)

2022-yilda 0,64–0,82 oralig'ida baholangan ushbu ko'rsatkich 2026-yilga kelib 0,73–0,88 oralig'ida o'sishi prognoz qilinmoqda. Ushbu o'sish inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, xususan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga investitsiya kiritish chora-tadbirlari bilan bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Yashil” iqtisodiyotni baholashda inson kapitali roligini oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi

Davlat siyosati va strategiya. Ushbu prognoz ko'rsatkichlari “yashil” iqtisodiyot loyihalari samarasini ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'un holda kuzatib borish lozimligini ko'rsatmoqda. 2026-yilgacha bo'lgan strategik hujjatlarda ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologik dasturlar va inson kapitalini rivojlantirish choralari bir-birini to'ldirishi maqsadga muvofiq.

Mintaqaviy “yashil” loyihalar. Ekotexnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha mintqa darajasida aniq loyihalarni amalga oshirish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaradorlikka (yangi ish o'rinlari, aholi salomatligi, ta'limga bo'lgan talab) ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Fan, ta'lim va innovatsiyalar. Mahalliy sharoitga mos “yashil” innovatsiyalarni tatbiq etish, SDG (Barqaror rivojlanish maqsadlari) doirasida inson kapitali va ekologiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tadqiq etish muhim. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot institutlarida “yashil” iqtisod tizimini qo'llab-quvvatlaydigan maxsus o'quv dasturlari, ilmiy laboratoriyalar tashkil etish zarur.

Xalqaro tajriba va hamkorlik. BMT, Jahon banki, OECD, GIZ, UNDP kabi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish — “yashil” iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlik indekslarini hisoblash, pilot loyihalar orqali tajribani kengaytirish, ilg'or texnologiyalarni jalb qilishda muhim omil bo'ladi.

Shunday qilib, 2026-yilgacha amalga oshirilishi mo'ljallangan “yashil” iqtisodiyot siyosati inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda. Inson omili (ta'lim, sog'liq, iqtisodiy faollik) bilan ekologik omillar (qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash) uyg'unligigina uzoq muddatli va barqaror rivojlanish strategiyasiga mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schultz, T. W. (1961). *Investment in Human Capital*. The American Economic Review.
2. Becker, G. S. (1964). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*.
3. Daly, H. E. (1996). *Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development*.
4. Ekins, P. (2000). *Economic Growth and Environmental Sustainability: the Prospects for Green Growth*.
5. Stiglitz, J. E. (1999). *Knowledge as a Global Public Good*. Global Public Goods.
6. S. X. G'ulomov, G'. X. Xodjimurodov, N. X. Abdukarimov va boshqalar (2019). *Inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyalari*.
7. Nazarov R. va boshqalar (2021). *Barqaror iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish masalalari*. T.
8. Qodirov, A., Urakova, D., Amonov, M., Masharipova, M., Ibadullaev, E., Xolmurotov, F., & Matkarimov, F. (2024). The dynamics of tourism, economic growth, and CO2 Emissions in Uzbekistan: an ARDL approach. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 14(6), 365-370.
9. Урокова, Д., & Акрамова, Н. (2023). SCRUM: ГИБКИЙ ПОДХОД К УПРАВЛЕНИЮ ПРОЕКТАМИ СФЕРА ТУРИЗМА. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).
10. Baxriddinovna, O. D., & Avazovna, A. M. (2023). A COMPARATIVE ANALYSIS OF KPIS FOR SUSTAINABILITY IN DIFFERENT SECTORS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 26(2), 3-11.
11. Bahriddinovna U. D. FOREIGN PRACTICES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SPHERE.
12. Bahriddinovna U. D. DEVELOPMENT TRENDS SERVICE RENDERING IN UZBEKISTAN.
13. Bahriddinovna U. D. Development of the Service Sector: A Comparative Analysis of National and Foreign Practices //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – С. 222-228.
14. Baxriddinovna O. D., Avazovna A. M. A COMPARATIVE ANALYSIS OF KPIS FOR SUSTAINABILITY IN DIFFERENT SECTORS //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 26. – №. 2. – С. 3-11.